INKLUZIV TA'LIMDA PEDAGOG VA OTA-ONALARNING SINERGETIK HAMKORLIGI

Saxabiyeva Mohira Xabibullo qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
sahabievamohira94@gmail.com +998909942642
Ro'ziboyeva Zeboxon Qudrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
roziboyeva@gmail.com +998976131213
Abduvaliyeva Go'zal Axmad qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
gozalabduvaliyeva966@gmail.com +998500703512

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog va ota-onaning bola tarbiyasidagi , ayniqsa alohida ehtiyojli bolalar ta'limi jarayonidagi hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Oiladagi mehr-e'tibor, psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayonida pedagoglar bilan muntazam muloqot qilish bolaning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi omil ekani ta'kidlanadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida individual yondashuv, mutaxassislar tavsiyalariga amal qilish, uy sharoitini ta'limga moslashtirish va kun tartibini shakllantirishning muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ota-ona va pedagog o'rtasidagi hamkorlikka xos muammolar ham tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Maqolada ota-onalar faol ishtirok etgan taqdirdagina inklyuziv ta'limning samaradorligi ortishi, bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ta'minlanishi haqida xulosa chiqariladi.

Abstract: This article highlights the importance of cooperation between teachers and parents in raising a child, especially in the process of educating children with special needs. It is emphasized that family care, psychological support, and regular communication with teachers during the educational process are decisive factors in the formation and development of a child as a person. The importance of an individual approach, following the recommendations of specialists, adapting home conditions to education, and forming a daily routine in the process of inclusive education is emphasized. The problems inherent in cooperation between parents and teachers are also analyzed and recommendations are given to eliminate them. The article concludes that only with the active participation of parents can the effectiveness of inclusive education increase and the child's successful integration into society be ensured.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность сотрудничества между учителями и родителями в воспитании ребенка, особенно в процессе обучения детей с особыми потребностями. Отмечается, что семейная забота, психологическая поддержка и регулярное общение с учителями в процессе обучения являются решающими факторами в формировании и развитии ребенка как личности. Подчеркивается важность индивидуального подхода, следования рекомендациям специалистов, адаптации домашних условий к образовательному процессу и формирования распорядка дня в процессе инклюзивного образования. Также анализируются проблемы, присущие сотрудничеству между родителями и учителями, и даются рекомендации по их устранению. В заключение делается вывод, что только при активном участии родителей можно повысить

эффективность инклюзивного образования и обеспечить успешную интеграцию ребенка в общество.

Kalit so‘zlar: alohida ehtiyojli bolalar, inkluziv ta’lim, sinergetik hamkorlik, defektolog, psixologik qo‘llab-quvvatlash, oilaviy muhit, individual ta’lim dasturi, moslashtirilgan ta’lim, rivojlanish, ijtimoiy moslashuv.

Keywords: children with special needs, inclusive education, synergistic cooperation, defectologist, psychological support, family environment, individual educational program, adapted education, development, social adaptation.

Ключевые слова: дети с особыми потребностями, инклюзивное образование, синергетическое сотрудничество, специалист по работе с детьми с особыми потребностями, психологическая поддержка, семейная среда, индивидуальная образовательная программа, адаптированное образование, развитие, социальная адаптация.

KIRISH

Ota-ona – har bir insonning hayotidagi eng muhim tarbiyachilar, ustozlar va tayanchlardir. Bola dunyoga kelgan ilk kunlardan boshlab ota-onaning mehriga, e’tiboriga va rahbarligiga muhtoj bo‘ladi. Ularning beradigan tarbiyasi, namunalari va qo‘llab-quvvatlashi bola shaxs sifatida shakllanishining poydevorini tashkil etadi.Avvalo, ota-onaning bolaga bo‘lgan muhabbati uning ruhiy rivojlanishida asosiy omildir. Shartsiz mehr olgan bola o‘ziga ishonadi, o‘zini qadrlashni o‘rganadi va atrofdagilar bilan sog‘lom munosabatlar quradi. Aksincha, mehr yetishmaydigan oilalarda ulg‘aygan bolalarning o‘ziga ishonchi past bo‘lishi, tashqi ta’sirlarga tez berilishi kuzatiladi. Bola tarbiyasidagi eng katta maktab – bu oiladir. Aynan ota-ona orqali bola yaxshilik va yomonlikni farqlashni, odob-axloqni, hurmat va mas’uliyatni o‘rganadi. Ularning har bir harakati bolaga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois ota-onaning o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyat bilan yondashishi nihoyatda muhimdir. “Bola tarbiyasi – avvalo ota-onaning tarbiyasi” degan fikr aynan shuning uchun aytiladi. Ota-ona nafaqat tarbiyachi, balki himoyachi va yo‘l ko‘rsatuvchidir. Hayotda bolani turli qiyinchiliklar, muammolar kutadi. Ularni engishda ota-onaning yordami, maslahatlari va ruhiy qo‘llovi katta kuch bag‘ishlaydi. Bola biladiki, unga ishonadigan, uni tushunadigan va doim yonida turadigan insonlar bor. Bu ishonch bolani ijobiy maqsadlar sari yetaklaydi. Shuningdek, ota-onalar bolalarning ta’lim olishi, bilimga qiziqishini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Alohida ehtiyojli bolalarni ta’lim jarayoniga samarali jalb etishda ota-ona va pedagog hamkorligining ahamiyati ko‘plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Jumladan, Abdullaeva Q. va Saidova M. tomonidan yaratilgan “Oilaviy tarbiya asoslari” asarida bola rivojlanishida oilaning yetakchi o‘rni ta’kidlanib, ota-onalar tomonidan ta’limiy jarayonni qo‘llab-quvvatlash bolalarning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Mualliflar oilaviy muhitda tashkil etilgan muntazam mashg‘ulotlar bolaning ko‘nikmalarni mustahkamlashiga yordam berishini alohida ta’kidlaydilar.

Normurodova X. “Defektologiya asoslari” asarida esa alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilib, korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligi ota-ona ishtirokiga bevosita bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Muallif uy sharoitida mashqlarni davom ettirish, mutaxassis tavsiyalariga amal qilish rivojlanishning uzluksizligini ta’minlashini ilmiy asoslaydi.

Rasulova X.ning “Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari” nomli tadqiqotida inkluziv ta’lim muhitida hamkorlik modeli muhim omil sifatida qaraladi. Muallif ota-ona, pedagog va

mutaxassislar o‘rtasidagi muntazam muloqot individual ta’lim dasturini to‘g‘ri tashkil etish imkonini berishini ta’kidlaydi. Shuningdek, ota-onaning pedagogik jarayondagi faolligi bolaning o‘ziga ishonchini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorida ham maxsus ehtiyojli bolalar ta’limini tashkil etishda ota-ona hamkorligi muhim shartlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda ta’lim muassasalari va oilaning hamkorlikda ishlashi, maslahat va treninglar tashkil etish orqali ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

G‘afforova T. va Jo‘rayev R.ning “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” asarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari asosida hamkorlikning ahamiyati ochib berilgan. Mualliflar ta’lim jarayonida ota-ona ishtiroki bolaning motivatsiyasini oshirish, ijtimoiy moslashuvini tezlashtirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar.

Xodjieva N.ning “Maxsus pedagogika (defektologiya)” darsligida alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratish zarurligi ko‘rsatilib, uy sharoitida sensor, nutq va harakat mashqlarini tashkil etish ota-ona zimmasidagi muhim vazifa sifatida qaraladi.

Vygotskiy L.S.ning pedagogik-psixologik qarashlarida bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning roli alohida o‘rin egallaydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, kattalar, jumladan ota-ona tomonidan ko‘rsatilgan yordam bolaning yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini tezlashtiradi. Bu esa ota-ona va pedagog hamkorligining ilmiy asosini tashkil etadi.

Booth T. va Ainscow M. tomonidan ishlab chiqilgan “Index for Inclusion” konsepsiyasida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda maktab va oila hamkorligi muhim strategik yo‘nalish sifatida belgilangan. Mualliflar ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish orqali bolalarning o‘quv faoliyatidagi faolligi oshishini qayd etadilar.

Woolfolk A.ning “Educational Psychology” asarida esa o‘quvchilar motivatsiyasi, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitning ta’lim natijalariga ta’siri keng yoritilgan. Muallif ota-onaning ijobiy rag‘bati va qo‘llab-quvvatlashi bolada o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishini ilmiy asoslaydi.

NATIJA

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar va nazariy manbalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, alohida ehtiyojli bolalar ta’lim-tarbiyasida ota-ona va pedagog hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik bolaning rivojlanish jarayonini uzluksiz davom ettirish, o‘rgatilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ota-onaning uy sharoitida mashqlarni davom ettirishi, bolaning kichik yutuqlarini rag‘batlantirishi va qulay muhit yaratishi natijalarning barqaror bo‘lishiga yordam beradi. Shuningdek, ota-ona va pedagog o‘rtasidagi muntazam muloqot bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Bu esa alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi, ularning o‘ziga ishonchini oshiradi hamda mustaqil faoliyatga jalb etadi. Ota-onaning faol ishtiroki bolaning emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ta’limga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllanishiga zamin yaratadi. Biroq hamkorlik jarayonida ota-onalarning pedagogik bilim yetishmasligi, vaqt tanqisligi yoki psixologik qiyinchiliklar kabi muammolar ham uchrashi mumkin. Shu sababli ota-onalar uchun maslahatlar, treninglar va seminarlar tashkil etish, pedagog-ota-ona aloqasini muntazam yo‘lga qo‘yish zarur hisoblanadi

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, alohida ehtiyojli bolalarni rivojlantirishda ota-ona va pedagog hamkorligi tizimli yondashuvni talab etadi. Adabiyotlarda ta’kidlanganidek, bola rivojlanishining samaradorligi faqat ta’lim muassasasida olib boriladigan mashg‘ulotlar bilan cheklanib qolmaydi, balki uy sharoitida ham muntazam davom ettirilishi zarur. Shu jihatdan ota-onaning faol ishtiroki ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ham ko‘rsatadiki, ota-onaning pedagogik jarayondagi ishtiroki bolada ijobiy emotsional muhitni shakllantiradi. Bu esa alohida ehtiyojli bolalarning o‘ziga ishonchini oshiradi, ularning muloqotga kirishishiga va yangi ko‘nikmalarni egallashiga yordam beradi. Pedagoglar tomonidan berilgan tavsiyalarni uy sharoitida qo‘llash, kun tartibini muvofiqlashtirish hamda rag‘batlantirish usullaridan foydalanish bolaning rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda ayrim muammolar ham kuzatiladi. Ba’zi ota-onalarning pedagogik bilim darajasi yetarli emasligi, vaqt tanqisligi yoki bolaning muammosini to‘liq qabul qilmasligi ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa pedagog va mutaxassislar tomonidan ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib borish, seminar va treninglar tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Inkluziv ta’limning sifatli amalga oshirilishi ota-onalarning faol ishtiroki bilan chambarchas bog‘liq. Oila — bolaning ruhiy va ijtimoiy tayanchi bo‘lib, ta’lim jarayonida maktab bilan doimiy hamkorlikda bo‘lishi, mutaxassislar tavsiyalariga rioya qilishi kerak. Ota-ona, pedagogik jamoa va bolalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shunday ekan, ota-onaning o‘rni — nafaqat yordamchi, balki jarayonning to‘liq sherigi sifatida baholanadi. Ota-ona nafaqat tarbiyachi, balki ta’lim jarayonining to‘laqonli ishtirokchisi, hamkori va bolaning eng kuchli psixologik tayanchi hisoblanadi. Bunday hamkorlik orqali har bir bola teng imkoniyatga ega bo‘ladi va jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladi. Pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi bolaning ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, individual ta’lim dasturini sifatli tuzish, davolash-pedagogik choralarni o‘z vaqtida ko‘rish imkonini beradi. Ota-onaning bolaning uy sharoitidagi ahvoli, qiziqishlari, ehtiyojlari va kundalik o‘zgarishlari haqida mutaxassislarga muntazam axborot berishi — ta’lim jarayonining aniqligi va maqsadliligini ta’minlaydi. Bu esa pedagogik jarayonning ichki va tashqi muvofiqligini shakllantirib, bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, ularga psixologik yordam ko‘rsatish, zarur metodik ko‘nikmalarni o‘rgatish — hamkorlikning sifatini belgilovchi muhim omillardir. Chunki ayrim ota-onalar o‘z farzandining holatini qabul qila olmasligi, bilim yetishmasligi yoki psixologik bosim tufayli ta’lim-tarbiya jarayonida passivlikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalari tomonidan treninglar, seminarlar, maslahatlar, uyga tashriflar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi zarur. Umuman olganda, alohida ehtiyojli bolaga ta’lim berish jarayoni faqat pedagogik masala emas, balki keng qamrovli ijtimoiy vazifa sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdullaeva Q., Saidova M. Oilaviy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. Normurodova X. Defektologiya asoslari. – Toshkent, 2021.

2. Rasulova X. Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 12.10.2021 yildagi 638-sonli qarori "Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi va pedagogik xodimlar faoliyatini tashkil etish tartibi".
4. G'afforova, T., Jo'rayev, R. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Xodjieva, N. Maxsus pedagogika (defektologiya). – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2021.
6. Vygotskiy, L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
7. Booth, T., Ainscow, M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: CSIE, 2011.
8. Woolfolk, A. Educational Psychology. – New York: Pearson, 2016.